

HUDUDLARNING TURISTIK SALOHİYATI: BOYSUN TUMANINING TURISTIK SALOHİYATI VA UN DAN UNUMLI FOYDALANISH.

Sadillayev Ikromxo‘ja

*Toshkent davlat sharqsunoslik universiteti Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti
Jurnalistika ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Anotatsiya: *Ushbu maqolada turizmni dunyo davlatlarining iqtisodiyotida tutgan o‘rni va ular tajribasida O‘zbekistondagi turistik salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarni, hususan Surxondaryo viloyati Boysun tumanini turizm imkoniyatlari va ularni oshirish, rivojlantirish bo‘yicha fikrlar va takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Turistik salohiyat; hududiy turizm; O‘zbekiston turizmi; madaniy meros; UNESCO obyektlari; iqtisodiy ta’sir; turizm infratuzilmasi; ekoturizm; ziyorat turizmi; tarixiy shaharlar; xalqaro reytinglar; barqaror turizm.*

Turizm - bu mamlakat iqtisodiyotiga yirik foyda olib keluvchi drayverdir. Dunyoning ko‘pgina agrar va industrial salohiyati rivojlanmagan davlatlari faqatgina turizmni o‘zidan ham yuqori daromad olishadi. Agar turizm mamlakatda boshqa sohalar bilan birgalikda rivojlansa, bu aholi turmush darajasini yanada oshirish va davlat g‘aznasini chet el valyutasi bilan to‘ldirishga katta hissa qo‘shadi. Misol uchun Misr, Birlashgan arab amirliklari, Saudiya Arabistoni, Iordaniya shular qatoriga kiradi. Saudiya Arabistoni 2021-yilgacha faqatgina neft industriyasini orqasidangina o‘z yalpi ichki mahsulotni shakllantirib kelar edi. Keyinchalik neftdan kelayotgan foydani turistik zonalarni tashkil etishni, huddi Birlashgan arab amirliklarini o‘ziga protatib sifatida olib yo‘lga qo‘ydi. Bu uslub qisqa fursatda o‘z samarasini berdi. Valiahd shaxzoda Muhammad bin Salmon va uning do‘sti Turkiy al-Sheyx mamlakatni sport oqshomlarining markaziga aylantirdi. Hozirgi kunda eng yirik aralash yakka kurashlar promoushnlari (Ufc, Aca, Showtime Boxing) o‘zing yirik va shov shuvli turnirlarini aynan Saudiya Arabistonida tashkil qiladilar. Bunga mamlakatdagi sport arenalarini turistik zonalarni hashamatli va o‘ta zamonaviy arxitektura namunalari asosida, mashxur dizayenerlar bilan hamkorlikda qurishayotgani va mehmonxona, aeroportlarda sayyohlar uchun juda qulay, oson tizimlar joriy qilinganligi hamda vizasiz rejim bilan erishishyapti.

2024- yilda Saudiyaning yalpi ichki mahsulotning 11.5 foizini turizmdan kelgan foyda tashkil etgan. Jahonning ko‘plab yirik, rivojlangan mamlakatlarining ham yillik daromadini katta qismi aynan sayyohlarga xizmat ko‘rsatish orqali topiladi.

Davlatlar kesimida Amerika qo‘shma shtatlari 2023-yilda turizm orqali 176-189 milliard dollar daromad ko‘rgan. Shaxar qurilishlarining zamonaviy ko‘rinishlari, osmon o‘par binolar, Gollivud filmlari orqali dunyoga tanilgan shtat go‘zalliklari turistlarni o‘ziga jalb qilib keladi. Bunga qo‘shimcha ravishda Aqshda sayyohlarga xizmat ko‘rsatish sifati yuqori va shunga yarasha qimmat.

Ispaniya 2024 yilda turizm orqali 92 milliard dollar foyda ko'rgan. Ispaniyada asosan playj yani "Sun and Sand" turizimi avjida. Lekin bu tur mavsumiy hisoblanadi shu sababli Ispaniya hukumati turistlarni boshqa fasllarda ham oqimi oshirish uchun harakat qilishmoqda. Ular sayyohlar sonini saqlab qolish uchun Madrid, Barselona va Andalusiya kabi yirik tarixiy manzillarga turistik reklamalar orqali turistlar e'tiborni qaratishga harakat qilishyapti.

O'zbekistonda ham turistik salohiyati baland bo'lgan, ammo yetarli darajada tashabbuslar qo'llanilmagani uchun turistik imkoniyatidan unumli foydalana olmayotgan hududlar yetarli. Buni birgina Surxondaryo viloyati Boysun tumani misolida ko'rish mumkin. Uzbekistan.travel saytining xabar berishcha: "Surxondaryo viloyatining tog'li va tog'oldi hududlarida mavjud turizm salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Surxondaryo viloyatining tog'-rekreatsion hududlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash hamda zamonaviy xizmat ko'rsatish va turistik obyektlar qurish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilingan. Ushbu qarorga muvofiq, Boysun tumanida 220,5 gektar maydonda "Omonxona" turistik markazi, Sariosiyo tumanida 615 gektar hududda "Sangarok" turistik markazi, Jarqo'rg'on tumanining Obihayot mahallasidagi Oqtepa suv ombori bo'yida 110 gektar maydonda "Obihayot" turistik markazi tashkil etiladi. Mazkur turistik markazlarni rivojlantirish va boshqarish maqsadida Surxondaryo viloyatida davlat muassasasi shaklida Turizm infratuzilmasini rivojlantirish va boshqarish direksiyasi tashkil etiladi. Turistik markazlar hududlarida tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun hozirda o'zlashtirilmagan yer uchastkalari elektron onlayn auksionlar orqali sotib boriladi. 2025–2027-yillar davomida mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari, kompleks xizmat ko'rsatish obyektlari va dam olish maskanlarini xususiy investitsiyalarni jalb etgan holda barpo etish maqsadida o'zlashtirilmagan yer uchastkalari 10 yil davomida teng ulushlarda bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan elektron auksionga chiqariladi." Bu chora-tadbirlarni amalga tatbiq etish uchun tumanning tarixiy va geografik jihatlariga e'tibor berish zarur.

Boysun tumani ko'p qatlamli tarix, boy madaniy meros va o'ziga xos tabiiy landshaftlar uyg'unlashgan hudud hisoblanadi. YuNESKO tomonidan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonalari"dan biri sifatida e'tirof etilgan. Boysun an'analari bu hududning o'ziga xos turistik brendini shakllantirishga katta imkon yaratadi. Shunga qaramay, mavjud salohiyat hali to'liq ishga solinmagan, turizm infratuzilmasi esa modernizatsiyaga muhtoj. Boysun tog'i, Ko'hitang tizmalari, Teshiktosh g'ori, Derbend dovoni, Sangardak sharsharasi va Qizil jarlar hududning eng muhim tabiiy obyektlari hisoblanadi. Bu hududlar ekologik turizm, ekstremal (trekking, alpinizm), geologik turizm, landshaft kuzatuv uchun juda qulay sharoit yaratadi.

Boysun qadimdan Buyuk Ipak yo'lining muhim chorrahalaridan biri bo'lgan. Teshiktoshdan topilgan neandertal bolasi qabri, qadimiy qishloqlar, Boysun qal'asi, qadimiy kulolchilik va temirchilik maktablari tarixiy turizm uchun katta baza hisoblanadi.

Boysun o'zining noyob urf-odatlarini, marosimlari, xalq og'zaki ijodi, qo'shiq va raqs maktablari bilan alohida ajralib turadi. Xususan Boysun baxshichiligi, milliy liboslar, uy

bezaklaridagi naqshlar, Boysuncha kulolchilik, oilaviy marosimlar an'analari hamon o'z holicha saqlanib qolgan bo'lib, bu etnoturizm uchun juda qimmatli resursdir. Lekin yo'llarning holati, mehmonxona va qabul maskanlarining yetishmasligi, Internet va raqamli xizmatlar pastligi turistlar oqimini cheklaydi. Hudud bo'yicha malakali gidlar sonining kamligi, xizmat ko'rsatish madaniyatining bir xil emasligi turistlarning qoniqish darajasiga ta'sir qiladi.

Boysunning xalqaro maydondagi tanilishi YuNESKO ro'yxatidan tashqari yetarli emas. Turistik kontentning kamligi, reklama strategiyalarining yo'qligi turistik oqimni kamaytiradi. Tabiatga zarar yetkazmasdan turizm rivojlantirish bo'yicha aniq tizimlashgan strategiyalar mavjud emas. Boysun–Sariosiyo–Dushanbe yo'nalishi bo'yicha xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo'llarini ta'mirlash. Sangardak, Derbend va Boysun tog'i etaklarida ekologik yo'laklar (eco-trails) tashkil qilish. Mahalliy mehmon uylari (guest house) tarmog'ini kengaytirish va sertifikatlash. Boysun tog'lari o'zining betakror manzarasi, qadimiy tarixiy qatlamlari va tabiiy sokinligi bilan sayyohlar uchun juda qulay maskan bo'lishiga qaramay, turistik xizmatlarning yetarlicha rivojlanmagani sababli ko'plab mehmonlar bu hududda uzoq qolmay, faqat bir kunlik sayohat bilan kifoyalaniq qaytib ketmoqda. Aslida Boysun shunday imkoniyatlarga egaki, to'g'ri tashkil etilgan xizmatlar tufayli turistlarni bir necha kunlab, hatto haftalab ushlab turish mumkin.

Boysun tog'lari noyob strukturaga ega bir qismi tekis odatiy ko'rinishda bo'lsa bir qismi tabiatda kam uchraydigan kanyon ya'ni kesik va tikka ko'rinishga ega. Agar tog'larda o'zgacha hissiyot beradigan ko'ngilochar obyektlar yaratilsa, masalan, jarlar ustiga qurilgan zipline yo'li, osma ko'prik, oynali ko'prik yoki balandlikdan uchishga mo'ljallangan paragliding maydonlari bo'lsa, ekstremal tajriba izlaydigan sayyohlar albatta Boysunni bir necha kunlik manzil sifatida tanlaydi. Tog' relyefi bu kabi faoliyatlar uchun juda qulay. Paraplarda uchish maydonlarini va havo shari orqali tabiatni tomosha qilish imkoniyati tashkil qilinsa ham, aholi ijara va xizmat ko'rsatish orqali yaxshigina daromad olishi mumkin. Shuningdek, tog' etaklaridan o'tadigan velosiped yo'laklari yoki uzoq piyoda yurish uchun yo'laklar tashkil qilish ham mehmonlarning vaqtini mazmunli o'tkazish imkonini beradi. Bunday yo'llar bo'ylab kichik dam olish maskanlari, kuzatuv maydonchalari va yo'l-yo'lakay choyxona yoki milliy taomlar taklif qilinadigan joylarning bo'lishi turistlarni tabiiy ravishda hududda uzoq qolishiga sabab bo'ladi.

Boysun o'zining madaniy qatlamlari bilan ham boy. Agar bu yerdagi xalqona an'analar sayyohlarga yaqin shaklda ko'rsatib berilsa, masalan, uy-ro'zg'or buyumlari yasash jarayonlari, kulolchilik yoki temirchilik mashg'ulotlari, baxshi va do'mbira san'ati bo'yicha mahorat darslari tashkil qilinsa, bu chet ellik mehmonlar uchun juda qiziqarli tajribaga aylanadi. Ayniqsa, "Boysun hayoti" yoki "Boysunda bir kun" ko'rinishidagi jonli muzey va kunlik ekskursiya tashkil etilsa — ya'ni mahalliy turmush tarzini to'g'ridan-to'g'ri kuzatish va ishtirok etish imkonini beradigan joy — sayyohning bir necha kun qolishiga yetarli sabab bo'ladi. Shu kabi folklor kechalari yoki marosimlar rekonstruksiyasi ham turistni Boysun ruhini his qilishga undaydi.

Bundan tashqari, oilaviy dam olish uchun qulay sharoitlar yaratish muhim. Masalan, tabiiy hovuzlar, kichik akvapark, barbekyu zonalari, qishda esa chang'i yoki qor ustida yuradigan maxsus mototsikllar xizmatlari oilaviy turistlar oqimini ko'paytiradi. Bugungi kunda ko'plab sayyohlar suratga olishga alohida e'tibor qaratadi. Shu sababli panoramali fotozonalar, dron bilan videotasvirga olish xizmatlari va tog' manzaralarida maxsus fotosessiyalar ham Boysunning turistik jozibasini oshiradi.

Hududda sog'lomlashtirish yo'nalishidagi xizmatlar ham katta imkoniyatga ega. Tog' havosi, o'simliklar hidlari, tinch landshaftlar — bularning barchasi wellness dasturlari uchun mos. Yoga mashg'ulotlari, tabiat terapiyasi, buloq suvlaridan foydalanilgan kichik spa markazlari kabi xizmatlar xalqaro turistlar orasida talab yuqori bo'lgan yo'nalishdir. Kechasi yulduzlar kuzatiladigan zonani tashkil qilish ham samarali bo'ladi, chunki Boysun tog'larida yorug'lik ifloslanishi juda past, bu esa astroturizm uchun noyob sharoit yaratadi. Ommaviy teleskoplar xizmati, chodir uylar maydonchalarini tashkil qilish turli xil masalan gulxan atrofida musiqa kechalari o'tkazish sayyohlarda qiziqishni yanada oshiradi. Bu nafaqat chet el balki mahalliy turistlarni ham jalb qiladi.

Mahalliy dehqonchilik, meva terish mavsumlari, chorvachilik jarayonlarida ishtirok etish kabi agro-turizm faoliyatlari esa sayyohning hududda tabiiy ravishda vaqtini cho'zadi. Glamping yoki eko-kempinglar esa aynan tabiat qo'ynida dam olishni istaydigan mehmonlar uchun mukammal tanlovdir.

Agar bu xizmatlar yagona tizimga birlashtirilsa va turistlar uchun ketma-ket kunlarga mo'ljallangan mavsumiy dasturlar tuzilsa — masalan, bir kuni trek, bir kuni etnografiya, keyingi kuni ekstremal tajribalar, kechqurun esa folklor dasturi — unda Boysun tog'lari nafaqat bir kunlik sayohat maskani, balki to'laqonli dam olish hududiga aylanadi. Bu esa hududga keluvchi sayyohlar sonini oshiradi, qolish muddatini uzaytiradi va eng asosiysi, Boysun iqtisodiyotiga sezilarli foyda keltiradi. Boysunda kichik kichik etnoqishloqlar tashkil qilish va eng ko'p turistlarni jalb qilishi mumkin bo'lgan yana bir kreativ ish bu: kanyon tog'larida o'yma, tog' ichiga mehmonxonalar qurishdir. Turkiyaning Kapadokiya hududidagi qadimgi shunday ko'rinishdagi uylar va Kanadaning Kyubek hududidagi har yili qishda quriladigan muzli mehmonxona ham mahalliy va xorijlik mehmonlarni haligacha o'ziga chorlab kelmoqda. Hozirgi kundagi texnikaviy imkoniyatlar Boysun tog'lari ichiga o'yib mehmonxona qurish uchun yetarli.

Huddi Boysun kabi turistik salohiyati mavjud bo'lgan lekin unumli foydalanmaganligi uchun e'tiborsiz qoldirilib, keyinchalik hukumat chora tadbirlari natijasida yirik turistik zonaga aylangan, O'zbekiston hududidagi joylar mavjud. Masalan Xorazm viloyatida joylashgan Ichan qal'a. Quyida **Ichan Qal'a (Itchan-Kala, Xiva)** haqida whc.unesco.org saytida quyidagicha ma'lumot keladi.

"Ichan Qal'a — Xiva shahrining devor bilan o'ralgan ichki shahri bo'lib, Markaziy Osiyodagi islomiy arxitekturaning noyob uyg'unligini saqlagan ansambl sanaladi. Uning tarixiy obyektlari — Juma masjidi, palata va madrasalar, maqbaralar, hammomlar va savdo maydonlari — XII–XIX asrlarga tegishli qatlamlarni o'zida jamlagan. Shu bois 1990 yilda

Itchan-Kala YuNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan va shu tariqa butun dunyo miqyosida himoya statusi olgan. Ichan Qal’aning holati XX asrning o‘rta davrida nihoyatda murakkablashgan edi. Sovet davrida 1967 yilda ichki hudud davlat arxitektura-tarixiy rezervati maqomiga keltirilgunga qadar ko‘plab tarixiy binolar ta‘mirdsiz, ayrimlari buzilib ketgan, an’anaviy materiallar va mehnat texnologiyalari yo‘qolish xavfi ostida qolgan edi. 1969 yildan boshlab esa rasmiy konservatsiya ishlari boshlangan va keyingi o‘n yilliklarda qayta tiklash kampaniyalari amalga oshirilgan — lekin bu ishlar ham doimiy, tizimli va xalqaro standartlarga muvofiq ravishda olib borilishi uchun qo‘shimcha sa’y-harakat talab qildi.

1990-yildan keyingi davrda — YuNESKO va O‘zbekiston hukumatining hamkorligida — Ichan Qal’aning saqlanishi va restavratsiyasini mustahkamlashga oid aniq chora-tadbirlar qabul qilindi. Bu chora-tadbirlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oldi: devor va darvozalarni mustahkamlash; yog‘och o‘ymakorlik, majolica (majolika) yuzaki bezaklar va gilam-ganch ishlari kabi an’anaviy dekorativ elementlarni tiklash; gumbaz va fasadlarning rang-bezagini qayta tiklash; tashqi va ichki drenaj hamda qurilish materiallarini oshkora (traditional) texnologiyalar bilan moslashtirish. Restavratsiya jarayonida muhim tamoyil shuki, tarixiy binolarning ichki va tashqi haqiqiyliги (authenticity) buzilmasligi, ularni zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish esa minimal aralashuv bilan amalga oshirilishi lozimligi hisoblangan.

Hukumat darajasidagi siyosat va moliyalashtirish ham muhim rol o‘ynadi. Xalqaro tashkilotlar (UNESCO) va mahalliy boshqaruv organlari bilan kelishilgan dasturlar asosida konservatsiya ishlari uchun byudjet ajratildi, restavratsiya maktablari va kasb-mahorat markazlari tashkil etildi (masalan, an’anaviy ganchchilik va yog‘och o‘ymakorligi bo‘yicha), shuningdek, turizm infratuzilmasi barqaror yo‘lga qo‘yildi: xaridorlar, mehmonxonalar va muzey-inshootlar uchun moslashtirishlar amalga oshirildi, sayyohlar axborot markazlari ochildi. Prezident va yuqori darajadagi davlat vakillari Ichan Qal’a joylariga tashriflar qilib, saqlash va ta‘mirlash ishlarini qo‘llab-quvvatlashlari ham muhim siyosiy signallar bo‘ldi. Ilmiy va texnologik yondashuvlar ham katta ahamiyat kasb etdi. So‘nggi yillarda 3D skanlash, konservatsiyaga oid texnik monitoring va ilmiy restavratsiya usullari joriy qilindi — masalan, Juma masjidining detallari haqida 3D skanlash va texnik tadqiqotlar olib borildi, bu esa aniq saqlash-restavratsiya rejasini tuzishda yordam berdi. Davlat va xalqaro mutaxassislar bilan birgalikda ishlab chiqilgan konservatsiya protokollari binolarning strukturaviy barqarorligini saqlagan holda, ularni xavfsiz va ko‘rkam ko‘rinishda saqlash imkonini berdi. Ichan Qal’a “ochiq muzey”ga aylanishi uchun amalga oshirilgan chora-tadbirlar nafaqat restavratsiya bilan cheklanmadi, balki hududning turistik salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan kompleks ishlarni ham o‘z ichiga oldi. Mahalliy fuqarolar va hunarmandlar qamrab olindi, ularning hunarlarini va turmush tarzini namoyish etish uchun muzey-uyalar, hunarmandlik do‘konlari va an’anaviy xizmatlar (mehmonhona, kafelar) shakllantirildi. Bu ishlar hududni “yashovchi tarix”ga aylantirdi: tashrif buyuruvchilar faqat

binolarni ko‘ribgina qolmay, ularning ichidagi hayot, hunarmandchilik va folklorini ham kuzatishi mumkin bo‘ldi.

Natijada Ichan Qal‘a Xiva shahrining markaziy va eng jozibali turistik hududiga aylandi: u nafaqat mahalliy sayyohlar, balki xorijiy mehmonlar uchun ham majburiy tashrif joyiga aylangan. Hozirgi kunda Ichan Qal‘a butun dunyoga ochiq tarixiy ansambl sifatida saqlanmoqda — ko‘plab muzeylar, madrasalar, sayyohlik marshrutlari va tadbirlar bu hududga keluvchilarni jalb etadi. Shu bilan birga, saqlash bilan bog‘liq doimiy muammolar — masalan, materiallar xarajatlari, ayrim binolarning nozikligi va turizm bosimi — hamon mavjud; YuNESKO va mahalliy boshqaruv bu muammolarni monitoring va qo‘shimcha saqlash dasturlari orqali hal qilishda davom etmoqda. Xalqaro matbuot va sayyohlik resurslari ham Ichan Qal‘aning “yashovchi muzey” sifatidagi yutuqlarini e‘tirof etadi: BBC va boshqa nashrlar Xivaning tarixiy markazini sayyohlik nuqtai nazaridan tavsiflab, restavratsiya va uning sayyohlikka ta‘siri haqida maqolalar e‘lon qilgan. Ushbu xalqaro ko‘rinarli maqolalar hududning global miqyosdagi nashrlarini oshirishga xizmat qildi va turistlarning e‘tiborini kuchaytirdi. Qal‘aning bugungi holati — bu uzoq muddatli siyosiy irodaning, mahalliy va xalqaro mutaxassislik ishlarining va jamiyat ishtirokining natijasidir. Dastlabki muhofaza maqomi, tizimli restavratsiya protokollari, hunarmandchilik va madaniy hayotning qo‘llab-quvvatlanishi orqali Ichan Qal‘a nafaqat saqlanib qolindi, balki sovrinli va barqaror turistik hududga aylantirildi.” Boysun kabi joylar uchun bu tajriba amaliy namuna bo‘la oladi: qadimiy madaniy qatlamlarni asrab-avaylash, mahalliy aholini jalb etish va barqaror turizm infratuzilmasini yaratish birgalikda amalga oshirilsa, hudud nafaqat saqlanadi, balki iqtisodiy va madaniy foyda ham beradi.

Xulosa: Mamlakatimiz hanuzgacha agrar-industrial mamlakat bo‘lib qolmoqda. ekolog va agrar soha mutaxassislarining tahliliga ko‘ra yaqin o‘n yillikda tuproq unumdorligi deyarli nol darajaga tushib ketadi va dehqonchilik bilan daromad ko‘rish ehtimoli yo‘qoladi. Lekin O‘zbekistonda turizm salohiyati yuqori bo‘lgan hududlar va potentsiallar ko‘p. Lekin aholining turistik savodxonlik darajasi pastligi tufayli o‘z hududlariga kelayotgan turistlarga xizmat ko‘rsatish orqali, hanuzgacha yaxshi daromad olaolishmayapti. Shu sababli prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yilda Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 135-sonli qarorini qabul qildi. Agar ushbu qaror ijrosida maqolada taklif etilgan fikrlar ham hokimliklar va ijro etuvchi organlar tomonidan inobatga olinsa Bosyun tumanining turizim salohiyatidan to‘liq foydalanib xorijlik va mahalliy sayyohlardan yirik foyda olish bilan birga tuman aholisini bandligini ham ta‘minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNWTO – World Tourism Organization:
<https://caravanistan.com/uzbekistan/south/boysun> Tourism Highlights, Uzbekistan Country Page

2. UNESCO World Heritage Centre <https://whc.unesco.org/en/tentativelists/6785>
3. “O‘zbekiston turizm geografiyasi” Muallif: A. Rasulov Nashriyot: “Fan”, 2019
4. <https://uzbekistan.travel/ru/>